

Toshkent sh.

2022 yil "28" 02

"Xalq ta'limi sohasida loyiha hujjatlariga texnik topshiriqlarni ishlab chiqish va qurilish obyektlari sifatini monitoring qilish bo'yicha injiniring kompaniyasi" DUK, keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb ataladi, nomidan Ustav asosida harakatlanuvchi, Bosh direktor Usmanov Asror Irgashevich, bir tomondan va "Soorujenie Proekt" MCHJ, keyingi o'rinlarda "Bosh loyihachi" deb ataladi, nomidan Ustav asosida harakatlanuvchi direktor Madatov R.A., boshqa tomondan, birgalikda "tomonlar" va har biri alohida "tomon" deb ataladi, mazkur shartnomani (keyingi o'rinlarda "shartnoma" deb yuritiladi) quyidagilar haqida tuzdilar:

I. SHARTNOMA MAVZUSI

1.1. Mazkur shartnoma tomonlar o'rtasida ishchi loyiha bosqichida loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqib, topshirish va qo'shimcha ishlarni (topografiya), shuningdek, "Toshkent shahri Uchtepa tumani 107-sonli umumta'lim maktabini mukammal ta'mirlash (Fasad, tashqi obodonlashtirish ishlari)" obyekti bo'yicha mualliflik nazoratini amalga oshirish uchun tuzilgan bo'lib, Bosh loyihachi amaldagi narxlar bo'yicha smeta hujjatlarini hisoblab chiqadi.

1.2. Bosh loyihachi loyiha-smeta hujjatlarini "Zamonaviy maktab" namunaviy loyahasiga muvofiq tayyorlangan Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan texnik topshiriqqa va/yoki nuqson dalolatnomasiga asosan ishlab chiqilishini kafolatlaydi.

1.3. Bosh loyihachi ushbu shartnoma imzolanganidan so'ng darhol shartnomada ko'zda tutilgan majburiyatlarini bajarishga kirishadi va taqvim rejasiga muvofiq loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishni ta'minlaydi.

II. SHARTNOMA QIYMATI VA HISOBLASH TARTIBI

2.1. Shartnomaning umumiy qiymati tanlov savdolari natijasida belgilanadi va 2022 yil 28 fevraldagi tanlov komissiyasi bayoni (lot33646) bilan tasdiqlangan bo'lib, 15% QQSni hisobga olgan holda 30 420 000 (O'ttiz million to'rt yuz yigirma ming) so'mni tashkil etadi. Loyiha-smeta hujjatlari qiymati 2-Ilovaga muvofiq hisoblab chiqilgan.

2.2. Buyurtmachi shartnoma g'zanachilikda ro'yxatdan o'tkazilagandan so'ng Bosh loyihachiga shartnoma umumiy summasining 15%i miqdorida oldindan to'lovni o'tkazib beradi.

Bosh loyihachi tomonidan taqdim etilgan shartnoma umumiy qiymatining 80%i miqdorida hisob-faktura va bajarilgan ishlar dalolatnomasi Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangandan so'ng, oldindan to'langan pulni ham hisobga olgan holda shartnoma umumiy qiymatining 80%i miqdorida moliyalashtirish amalga oshiriladi.

Shartnoma umumiy qiymatining qolgan 20% qismi obyektida qurilish-ta'mirlash ishlari bajarilishi davomida mualliflik nazorati olib borilishini hisobga olgan holda moliyalashtiriladi.

Avans va joriy moliyalashtirish belgilangan maqsadlar uchun mablag'lar ajratilgandan so'ng amalga oshiriladi hamda mablag'larning budjetdan o'z vaqtida ajratilmaganligi bilan bog'liq kechikish uchun Buyurtmachi javobgar hisoblanmaydi.

2.3. Bosh loyihachi tomonidan ishlab chiqilgan loyiha-smeta hujjatlari ekspertizasi natijalariga ko'ra, ushbu shartnomaning qiymati amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda qayta ko'rib

chiqilishi mumkin va tegishli asoslar mavjud bo'lganda bu haqda tomonlar ushbu shartnomaga qo'shimcha kelishuv tuzadilar.

III. ISHLARNI BAJARISH MUDDATI.

3.1. Shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish ushbu shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan taqvim rejasiga muvofiq amalga oshiriladi (1-Ilova). Taqvim rejasida ko'rsatilgan muddat ichida Bosh loyihachi ishlab chiqilgan loyiha-smeta hujjatlarini elektron ko'rinishda kuzatuv xati asosida Buyurtmachi topshirilishini ta'minlashi lozim.

Buyurtmachi 10 kunlik muddatda elektron ko'rinishda taqdim qilingan loyiha-smeta hujjatlarini texnik topshiriqqa muvofiqligini o'rganadi va kamchiliklar aniqlangan taqdirda, Bosh loyihachidan o'z majburiyatini lozim darajada bajarmaganligi uchun shartnoma umumiy qiymatining 5% miqdorda jarima to'lab berish hamda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kunlik muddatda bartaraf etish to'g'risida yozma talabnoma yuboradi. Kamchiliklar belgilangan muddatda bartaraf etilmagan holatda Bosh loyihachi har bir kechiktirilgan kun uchun shartnoma umumiy qiymatining 0,5%i miqdorida penya to'lashga majbur.

Kamchiliklar mavjud bo'lmagan holatda yoki ular bartaraf etilgan holda Buyurtmachi elektron loyiha-smeta hujjatlarini ekspertizaga topshirish uchun qabul qilinganligini yozma ravishda tasdiqlaydi va shu paytdan boshlab Bosh loyihachi loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha o'z majburiyatini bajargan hisoblanadi.

Bosh loyihachi o'zi ishlab chiqqan loyiha-smeta hujjatlari yuzasidan o'rnatilgan tartibda ekspertiza xulasasi taqdim etilgan kundan boshlab 5 ish kunida yetkazib beriladigan materiallar ro'yxati ko'rsatilgan yuk xati bo'yicha 4 nusxada kitob ko'rinishida belgilangan tartibda topshiradi.

3.2. Texnik topshiriq berilmagan taqdirda, Bosh loyihachi o'z majburiyatlarini bajarishga kirishmaslik huquqiga ega hamda ishni boshlash va tugatish muddatlari mutanosib davrga o'zgaradi.

IV. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI.

4.1. Buyurtmachi quyidagilarga majbur:

- "Zamonaviy maktab" namunaviy loyihasi asosida texnik topshiriqni Bosh loyihachiga oldi-berdi dalolatnomasi asosida taqdim etish;
- Shartnoma shartlariga muvofiq to'lovlarni amalga oshirish;
- Bosh loyihachi tomonidan ishlab chiqilgan loyiha-smeta hujjatlaridan faqat shartnomada nazarda tutilgan maqsadlar uchun foydalanish;
- Tegishli davlat organlari bilan loyiha-smeta hujjatlarini kelishishda Bosh loyihachi bilan birgalikda ishtirok etish.

4.2. 4 (to'rt) nusxada kitob holatida chiqarilgan loyiha-smeta hujjatlari olingan kundan boshlab 10 kun ichida Buyurtmachi qabul qilish dalolatnomasini imzolashi lozim.

V. BOSH LOYIHACHINING VAZIFALARI.

5.1. Bosh loyihachi majbur:

- Ushbu shartnomaning umumiy qiymati doirasida, Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan texnik topshiriq asosida mazkur shartnomaning 1.1-bandida ko'rsatilgan barcha ishlarni taqvimda belgilangan muddat ishlab chiqish;

- Shartnoma imzolanganidan so'ng 3 kun ichida texnik shartlarni olish uchun bevosita obyektga chiqqan holda yuklamalarni aniqlash va Buyurtmachiga taqdim etish taqdim etish;
- Loyiha-smeta hujjatlarini barcha manfaatdor tashkilotlar, shuningdek, qo'shimcha talablar taqdim etilganda davlat nazorati organlari bilan kelishib berish;
- Buyurtmachining roziligisiz loyiha-smeta hujjatlarini uchinchi shaxslarga o'tkazmaslik;
- Mualliflik nazoratini amalga oshirish va qurilish-ta'mirlash ishlarini amalga oshirish jarayonida loyiha-smeta hujjatlariga amal qilinishini nazorat qilish, obyektida mualliflik nazorati kitobi yuritilishi hamda o'rnatilgan tartibda to'ldirib borilishini ta'minlash;
- Buyruq asosida mualliflik nazoratini amalga oshiruvchi hamda qurilish-ta'mirlash ishlarini amalga oshirish jarayonida loyiha-smeta hujjatlariga amal qilinishini nazorat qiluvchi vakilini belgilash va uning Buyurtmachi texnik nazoratchisi bilan o'zaro kelishilgan jadvalda belgilangan kun va vaqtda Obyektida hozir bo'lishini ta'minlash (jadval texnik nazoratchi va Bosh loyihachining vakili tomonidan imzolanadi).
- Loyiha-smeta hujjatlariga kiritilgan barcha o'zgarishlarni Buyurtmachi bilan kelishish.
- Loyiha-smeta hujjatlariga tuzatish kiritish bilan bog'liq barcha xarajatlar, qo'shimcha kelishuv tuzmagan holda, Bosh loyihachi hisobidan amalga oshiriladi;
- Bosh loyihachi tayyor loyiha-smeta hujjatlarini to'liq holatda, ular bo'yicha ekspertiza xulasasi olingan kundan boshlab 5 ish kunida yetkazib beriladigan loyiha-smeta materiallari ro'yxati ko'rsatilgan yuk xati bo'yicha 4 nusxada kitoblar ko'rinishida belgilangan tartibda topshiradi. Loyiha-smeta hujjatlarini kitob ko'rinishida o'z vaqtida taqdim etmaganlik uchun har bir kechiktirilgan kun uchun Bosh loyihachi shartnoma umumiy qiymatining 0,5%i miqdorida penya to'laydi. Shu bilan birga, Bosh loyihachi u tomonidan ishlab chiqilgan loyiha-smeta hujjatlari bo'yicha ijobiy ekspertiza xulosasi olinib, 4 nusxada kitob ko'risinishda taqdim qilgandan so'ng shartnoma umumiy qiymatining 80%i miqdorida hisob-faktura va bajarilgan ishlar dalolatnomasini taqdim etadi.
- Bosh loyihachi barcha ishlarni muddatidan oldin bajarishga haqli. Bunday holda, Buyurtmachi ushbu shartnoma shartlariga muvofiq ishlarni muddatidan oldin qabul qilish va to'lovni amalga oshirish huquqiga ega.

5.2. Bosh loyihachi alohida ish hajmlari yoki ish turlarini bajarish uchun yordamchi pudratchilarni jalb qilishi mumkin.

5.3. Mualliflik nazorati tugallanganidan so'ng shartnomaning to'liq summasiga bajarilgan ishlar dalolatnomasi va hisob-faktura rasmiylashtiradi. Mualliflik nazoratini amalga oshirish obyektini foydalanishga topshirish to'g'risidagi davlat qabul komissiyasi dalolatnomasining Bosh loyihachi tomonidan imzolangan sanadan boshlab tugallangan hisoblanadi.

VI. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI.

6.1. O'z zimmasiga olgan majburiyatini bajarmagan yoki tegishli tarzda bajarmagan tomon mulkiy javobgar hisoblanadi va boshqa tomonning barcha zararlarini O'zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida" gi Qonuniga va ushbu shartnomaga muvofiq qoplaydi.

6.2. Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha o'z majburiyatini taqvim rejasida belgilangan muddatlarini buzganlik uchun Bosh loyihachi Buyurtmachiga har bir kechiktirilgan kun uchun shartnoma umumiy qiymatining 0,4%i miqdorida penya to'laydi, lekin penyaning umumiy miqdori shartnoma qiymatining 50%idan oshib ketmasligi lozim.

6.3. Agar ushbu shartnoma shartlarida boshqacha holat nazarda tutilmagan bo'lsa, Buyurtmachining aybi bilan moliyalashtirish o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi uchun, u har bir kechiktirilgan kun uchun kechiktirilgan to'lov miqdorining 0,4% miqdorida penya to'laydi, lekin penyaning umumiy miqdori kechiktirilgan to'lov miqdorining 50% dan oshmasligi kerak.

6.4. Tegishli moliya organlari tomonidan pul mablag'larini ajratish kechiktirib amalga oshirilgan holatda, Buyurtmachi mazkur shartnomaning 2.2.-bandi shartlariga muvofiq to'lovni kechikkanligi uchun javobgar emas. Buyurtmachi Bosh loyihachining rozilgisiz unga to'lanishi lozim bo'lgan mablag'lar hisobidan penya va jarimalar summalarini ushlab qolishga haqli.

6.5. Kelishilgan kun va vaqtda obyektida mualliflik nazoratini amalga oshiruvchi Bosh loyihachi vakilining hozir bo'lmasligi aniqlangan holatda, Bosh loyihachi har bir shunday majburiyatning buzilishi uchun Buyurtmachiga shartnoma miqdorining 5%i miqdorida jarima to'lash majburiyatini oladi. Bosh loyihachi vakilining yo'qligi holati Buyurtmachi texnik nazoratchisi va obyektida ishlayotgan qurilish pudrat tashkilotining kamida 3 nafar xodimi tomonidan imzolanadigan dalolatnoma asosida tasdiqlanadi. Jarima miqdori Bosh loyihachi tomonidan Buyurtmachidan talabnoma olingan kundan boshlab 7 kalendar kun ichida to'lab berilishi lozim.

6.6. Tegishli obyektida qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirilayotgan davrda Bosh loyihachi tomonidan ishlab chiqilgan loyiha-smeta hujjatlarida nomuvofiqliklar va/yoki kamchiliklar aniqlanishi natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan har qanday zarar, uning miqdori qanday bo'lishidan qat'iy nazar, Bosh loyihachi tomonidan so'zsiz ravishda qoplab berilishi lozim. Nomuvofiqliklar va/yoki kamchiliklar Bosh loyihachi, Buyurtmachi va Bosh pudratchi vakillaridan iborat qilib tuziladigan komissiya tomonidan aniqlanib, dalolatnoma orqali rasmiylashtiriladi. Bosh loyihachi o'z vakili ishtirokini ta'minlamagan holatda dalolatnoma uning ishtirokisiz tuziladi hamda qonuniy kuchga ega hisoblanadi. Bosh loyihachi dalolatnoma asosida aniqlangan zarar summasini unga dalolatnoma yuborilgan (topshirilgan) kundan boshlab 3 bank ish kuni ichida to'lab bermagan holatda undiruv sud tartibida amalga oshiriladi.

6.7. Shartnoma manfaatdor tomon tomonidan faqat shartnoma bo'yicha mulkiy va nomulkiy xususiyatdagi barcha masalalarni hal qilgandan so'ng, boshqa tomonni 15 kun oldin yozma ravishda ogohlantirish orqali bekor qilinishi mumkin. Shartnomaga kiritilgan har qanday o'zgarishlar, qo'shimchalar amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda tomonlarning kelishuvi bo'yicha yozma ravishda amalga oshiriladi, aks holda bu o'zgarishlar, qo'shimchalar haqiqiy hisoblanmaydi.

6.8. Shartnomani tuzish, ijro etish, o'zgartirish, shuningdek etkazilgan zararni qoplash chog'ida tomonlar o'rtasida yuzaga kelgan nizolar muzokaralar yo'li bilan hal etiladi. Kelishuvga erishilmagan taqdirda, nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudi tomonidan hal etiladi.

VII. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI.

7.1. Ushbu shartnoma imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

7.2. Ushbu shartnomaning amal qilish muddati tugashi tomonlarni uning bajarilmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilmaydi.

VIII. FAVQULODDA VAZIYATLAR.

8.1. Shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan favqulodda holatlar (yong'in, suv toshqini, zilzila, tabiiy ofatlar, falokat, portlashlar va boshqalar) natijasida tomonlar ushbu

shartnoma bo'yicha qabul qilingan majburiyatlarning qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun javobgarlikdan ozod etilishi mumkin.

IX. BOSHQA SHARTLAR.

9.1. Soliqqa tortish bilan bog'liq o'zgarishlar ro'y berganda tomonlar ushbu shartnomaga tegishli o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

9.2. Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan barcha holatlar O'zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni bilan tartibga solinadi, shartnoma taraflari o'rtasida nizolarni hal etish esa belgilangan tartibda sudgacha choralar qo'llanilgandan so'ng iqtisodiy sud tomonidan amalga oshiriladi.




9.3. Ushbu shartnoma 2 nusxada tuzilgan bo'lib, uning har bir nusxasi bir xil qonuniy kuchga ega.


Quyidagi ilovalar shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi:

1-Ilova: Taqvim rejasi.

2-Ilova: Loyiha-smeta hujjatlari qiymati

X. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA YURIDIK MANZILLARI

<p>BUYURTMACHI: “Xalq ta’limi soxasida injiniring kompaniyasi” DUK</p> <p>Manzil: Toshkent Sh., Shayxontohur tumani Navoiy ko'chasi, 2A uy. H/r: 2021 0000 4009 3165 5012 AT “Universal bank” Toshkent filiali Bank kodi: 00996 STIR: 305795297 OKED: 96090</p> <p>Bosh direktor  Usmanov A.I.</p> <p><i>10puec Kp Ycaigynaab A.I.</i></p>	<p>BOSH LOYIHACHI: OOO”Soorujenie Proekt”</p> <p>Manzil: Toshkent sh.Sergili tumani, Qoyliq 5 massiv 9/28 uy H/r: 2020 8000 7007 5096 3001 AKB ”Ipoteka bank” Mehnat filiali Bank kodi:00423, INN:304 755 537 OKED: 71110 Tel: (94)601 40 85</p> <p>Direktor  Madatov R.A.</p> <p></p>
---	---



2022 yil "28" 02 gi

12/2022-son Shartnomaga

1 -ilova

2022 yil uchun taqvim ish rejasi.

№ №	Shartnoma bo'yicha ishlarning nomi va uni bajarishning asosiy bosqichlari, dizayn bosqichi	Muddati	
		Boshlash:	Oxiri: oy yili
1	Toshkent shahri Uchtepa tumani 107-sonli umumta'lim maktabini mukammal ta'mirlash (Fasad, tashqi obodonlashtirish ishlari)"	Oldindan 15% to'lov olingan paytdan boshlab	15 kun


«BUYURTMACHI»

«XALQ TA'LIMI SOHASIDA INJINIRING
KOMPANIYASI» DUK

«IJROCHI»

«SOORUJENIE PROEKT » MCHJ

Bosh direktor


A. Usmanov

Raxbari


R. Madatov



2022 yil "12" 02 gi

12/2022-son Shartnomaga

2 -ilova

LSX ishlab chiqish xarajatlarini hisoblash

Ish hajmini xisoblash varaqasi

No	Korxonalar, binolar, inshoot tavsifi yoki ish turlari hisoblash Xarajatlar so'mda	Asoslovchi xujjan	ishlab chiqish xarajatlarini so'mda.	Hisob so'mda.
1	2	3	4	5
1.	Toshkent shahri Uchtepa tumani 107-sonli umumta'lim maktabini mukammal ta'mirlash (Fasad, tashqi obodonlashtirish ishlari)"Taxminiy xarajat 669715941 so'm	O'zbekiston Respublikasi qurilish vazirining 2019-yil 19-avgustdagi 396-son buyrug'i, O'z.Res. Adliya vaz. tomonidan 2019-yil 9-sentabrda ro'yxatdan o'tkan №-3180 Loyihata'dqiqot ishlarining qiymatini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomga asosan Shartnoma buyicha foyiz 3,651126172013875%	669715941 mln x 3,651126172013875%=	LSX Summasi 17 328 000 Mualliflik azoratini summasi 4 332 000
	Jami			24 452 174
	Topogrovlik ishlari			2 000 000
	Jami summsi			26 452 174
	QQS 15%			3 967 826
	Jami			30 420 000

Jami: 15% QQSni hisobga olgan holda 30 420 000 (O'ttiz million to'rt yuz yigirma ming) so'mni tashkil etadi.

«SOORUJENIE PROEKT» MCHJ

Raxbari



R.Madatov